

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



CLASSIFICATION OF CHANNELS OF HORIZONTAL AND VERTICAL SOCIAL MOBILITY IN MODERN SOCIETIES

Lola Muzafarovna Karimova

associate professor, Ph.D

Bukhara State Medical Institute

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: anthropology, concept, theories, philosophy, Arab Muslim philosophy

Received: 24.12.23

Accepted: 26.12.23

Published: 28.12.23

Abstract: In this article, the author presented his research results on the issue of regulating the mechanisms of social mobility. The main factor of social management is the regulation of social mobility mechanisms.

ZAMONAVIY JAMIYATLARDA GORIZONTAL VA VERTIKAL IJTIMOIY MOBILLIK KANALLARINING TASNIFI

Lola Muzafarovna Karimova

dotsent, PhD

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Buxoro, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zi: antropologiya, tushuncha, nazariyalar, falsafa, arab musulmon falsafasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini tartibga solish masalasi bo'yicha o'z tadqiqot natijalarini taqdim etdi. Ijtimoiy boshqaruvning asosiy omili ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini tartibga solishdir.

КЛАССИФИКАЦИЯ КАНАЛОВ ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ И ВЕРТИКАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ ОБЩЕСТВАХ

Лола Музабаровна Каримова

доцент, PhD

Бухарский государственный медицинский институт

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: антропология, понимание, теории, философия, арабо-мусульманская философия

Аннотация: В данной статье автор изложил свои результаты исследования по вопросу регулирования механизмов социальной мобильности. Главный фактор

KIRISH

Ijtimoiy mobillik nazariyasining asoschisi P.Sorokinning qarashicha, ijtimoiy mobillik kishilarning ijtimoiy pog‘onalardan ikki yo‘nalish bo‘yicha harakat qilishidir. Birinchisi, vertikal yo‘nalishda bo‘lib, unda yuqori va past darajalarga qarab, ikkinchisi esa gorizontal yo‘nalishda bo‘lib, unda individ yoki guruhning ijtimoiy daraja bo‘ylab o‘zgarishini anglatadi .

Har qanday jamiyatda ham u yoki bu darajada vertikal mobillik mavjud bo‘lganligi hamda qatlamlar o‘rtasida harakatlanuvchi kishilar bir qatlamdan boshqasiga tepaga yoki pastga ko‘chib o‘tishi mumkin bo‘lgan «filtrlar», «tuynuklar», «pillapoyalar», «liftlar» yoki «yo‘llar» mavjud bo‘lganligi sababli, ijtimoiy sirkulyatsiyaning mazkur kanallari aslida qanday ekanligi haqidagi masalani ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy mobillik jarayoni ma’lum sharoitlarsiz, ya’ni ijtimoiy mobillik kanallari orqali tashkiliy, iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy ta’sirsiz amalga oshmaydi.

Ijtimoiy mobillik kanallari, liftlari va yo‘llarining normal faoliyati ularning qobiliyatli, iqtidorli (ijtimoiy kanal) individlarning olg‘a yurishi va iqtidorsiz, qobiliyatsiz odamlarning harakatiga to‘sinqinlik qila olishini (ijtimoiy filtr) anglatadi. Ayni paytda ikki jarayonning uzviy olib borilishi muhim, chunki ilgari surish funksiyasining ustunlik qilishi yetarli darajada malakali kadrlar tanlanishiga halal berishi mumkin. Boshqa tomondan, ijtimoiy filtrlarning haddan ortiq kuchaytirilishi turli «ayylanma» yo‘llarning (urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, korrupsiya, poraxo‘rlik va h.) tarqalishiga hamda tanlash tartib-taomilining rasmiyatichilikka berilishiga, ya’ni ichki emas, tashqi alomatlar afzal topilishiga olib keladi.

Ijtimoiy mobillik kanallari bir jamiyatning rivojlanishidagi turli davrlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy mobillik kanallari ichida dastlab armiya, din, maktab, siyosiy, iqtisodiy va kasbiy tashkilotlar ijtimoiy institut sifatida tasniflanadi.

Ijtimoiy mobillik nazariyasi bo‘yicha ijtimoiy mobillik kanallari quyidagicha tasniflanadi:

Armiya – bu kanal asosan urush vaqtida ko‘proq samarali faoliyat ko‘rsatadi. Urush vaqtida komandirlar tarkibidagi ko‘plab yo‘qotishlar oqibatida bo‘sh qolgan o‘rinlar pastroq unvonga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar va askarlar bilan to‘ldiriladi. Yuqori unvonlar va boshqaruv vakolatlariga ega bo‘lgan bunday harbiylar jamiyatdagi tabaqalanishda yuqoriga chiqib oladilar va boylik to‘plab oqibatda o‘z ijtimoiy maqomlarini o‘zgartiradilar. Ayrim vaqtarda tinchlik vaqtida ham mamlakatda hukumat o‘zgarganda yoki davlat to‘ntarishi yuz berganda ham armiya ijtimoiy mobillik kanali sifatida namoyon bo‘ladi.

Armiya doim ijtimoiy mobillikda yuqoriga ko‘tarilish uchun ijtimoiy narvon” sifatida muhim rol o‘ynagan. Armiya sababli jamiyatdagi oddiy odamlar harbiy unvonlarning oliysi hisoblangan general, marshal yoki admiral unvonlari orqali hatto dunyoga ustunlik qilishi uchun kerakli sharoitlarni yaratib bergen.

Bir vaqtning o‘zida armiya sababli oliy nasab egalari hisoblangan aristokratlar, shahzodalar, qirollar, graflar, xonlar, amirlar va hukumдорлар o‘z oliy maqomlaridan, unvonlaridan, mulkidan, jamiyatda egallagan o‘rinlari, hatto, hayotidan ham mahrum bo‘lganlar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda harbiylar uchun yaratilgan sharoitlar ijtimoiy himoyalar va imtiyozlar, shuningdek, ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor va berilayotgan imtiyozlar mamlakat ayollari uchun ijtimoiy mobillik kanali sifatida o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Harbiy xizmatni namunali o‘tagan ayollarni oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda berilayotgan imtiyozlar, yuqori haq to‘laydigan korxonalarga doimiy ish joyiga ega bo‘lishi, uy-joy bilan ta’milanishi, ularga bepul yuqori malakali tibbiy xizmat ko‘rsatilishi, harbiy xizmat davrida olgan bilim va ko‘nikmalarining yuqori sifatliligi va doimiy harbiy tayyorgarlik natijasida mustaqil fikrning shakllanishi har bir yoshni o‘z hayotiy maqsadiga erishishdagi ishonchli yo‘l ekanligini tasdiqlab turibdi.

Jamoatchilik fikrida ikkinchi o‘rinni egallagan vertikal ijtimoiy mobillik kanali bu – din. Hozirgi vaqtida din ijtimoiy mobillik kanali sifatida o‘z ahamiyatini barqaror saqlamoqda. Dinning jamiyatdagi ahamiyatining yuqoriligi yoki pastligi, uning muhim kanal vazifasini bajarishini bildiradi.

Bizga tarixdan ma’lumki, yangidan vujudga kelgan din dastlab jamiyatda kam ahamiyatli bo‘lgan. Jamiyat a’zolari orasida qattiq qarshiliklarga uchragan va jamiyatda ijtimoiy mobillik kanali ham bo‘la olmagan. Keyinchalik dinning ta’sir doirasi kengayishi va ommaviy e’tiqod sifatida qabul qilinishi oqibatida dinning jamiyatdagi ahamiyati ko‘tarilib, din orqali oddiy odamlar o‘z ijtimoiy maqomlarini o‘zgartirgan. Bunga Xristianlik va Islom dinini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Dunyo mamlakatlarida turli dinlar o‘z hududida katta ahamiyatga ega. Xristianlik, Islom, Buddizm, Daotsizm, Konfutsiylik, Hinduizm, Iudaizm dinlari o‘zlariga mos jamiyatlarda hanuzgacha ijtimoiy mobillik kanali sifatida ahamiyatlidir. Lekin, din jamiyatda faqat vertikal ko‘rinishda emas, balki, gorizontal ko‘rinishda bo‘lishi ham mumkin. Bunga misol qilib, oddiy dindorlar yoki dindor oilalarni ham ko‘rsatish mumkin.

Yuqori sur’atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda din ijtimoiy mobillik kanali sifatida muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, O‘rta Osiyoda – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikistonda so‘nggi yillarda diniy sohada qilinayotgan islohotlar va davlatlarning

diniy bag'rikenglik siyosati natijasida din ijtimoiy mobililik kanali sifatida muhim o'rinni egallab kelmoqda.

O'zbekiston aholisining ko'pchilik qismi Islom diniga e'tiqod qilganligi sababli aholining asosiy qismini muslimmonlar tashkil qiladi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda 2000 dan ortiq masjidlar va 10 dan ortiq diniy ta'limga muassasalarini faoliyat yuritmoqda. Har bir masjidda kamida 5 ta xodim, diniy ta'limga muassasalarida esa 50 ga yaqin o'qituvchilar doimiy faoliyat yuritadilar va bir vaqtning o'zida jamiyatda katta hurmatga sazovor bo'ladilar. O'zbekiston din ishlari bo'yicha qo'mitasining ma'lumotlari bo'yicha, hozirgi kunda O'zbekistonda 2220 ta diniy tashkilot, 16 ta diniy konfessiya ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, mamlakatda 159 ta Xristian diniy tashkilotlari, 8 ta Yahudiy senagogalari, 6 ta Baxoi ibodatxonasi, 1 ta Hinduizm dinidagi Krishna ibodatxonasi va 1 ta Buddizm ibodatxonasi faoliyat yuritmoqda. Yuqorida keltirilgan barcha diniy tashkilotlar va ularda e'tiqod qiluvchilarning huquq va manfaatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 muddasi bilan va 1998 yil 1 mayda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Ta'limga tarbiya institutlari qanday ko'rinishda bo'lmasinlar har doim turli jamiyatlarda kuchli ijtimoiy mobililik kanallaridan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Ta'limga ijtimoiy mobililik kanallari ichida o'zining jadalligi va barcha uchun imkoniyat borligi sababli dunyo mamlakatlarining barchasida maktablar, kollej va universitetlarda o'qish istagini bildirgan Ayollar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Ta'limga jamiyatning barcha a'zolari uchun stratifikatsiyaning eng past qatlamidan eng yuqori qatlamiga olib chiquvchi ijtimoiy lift sifatida ham e'tirof etiladi. Ba'zida ta'limga jarayonida olingan bilimlarning davlat siyosatiga yoki jamiyat tartibiga mos kelmasligi yoki taraqqiyotni jaddalashtirishga qaratilgan bilimlarni hukumatga yoqmasligi bilim orqali ijtimoiy maqomini o'zgartirmoqchi bo'lgan jamiyat vakillariga nisbatan to'siqlar va filtrlar qo'llaniladi.

Ikkinci jahon urushidan keyin urushda mag'lub bo'lgan Yaponiya va Germaniya aynan ta'limga tizimini rivojlantirish orqali o'zining iqtisodiy taraqqiyotiga erishdi va bu ikki mamlakat o'z jamiyatining obro'sini ham tikladi.

Ta'limga institutlari ilmiy taraqqiyot va aholining ta'limga darajasini oshirishga ko'maklashish yo'li bilan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni amalga oshirish, ilmiy-texnik potensialni yaratish, jamiyatning umumiyligi taraqqiyotini amalga oshirish vazifalarini bajaradi.

Zamonaviy jamiyatlarda ta'limga rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Dunyo dinamikasining prognozi ta'limga jamiyatning ilmiy-texnik imkoniyati rolini oshirishga tayanadi. Bugungi kunda yurtimizda ta'limga tizimiga berilayotgan e'tibor Ayollarimizning yuksak natijalarga erishishlariga zamin yaratmoqda. Ma'lumki, hozirgi kunda eng qulay va samarali kapitallardan biri ota-onalar o'z farzandlariga bilim olishlari, ularning yuksak marralarga erishishlari uchun zarur

sharoitlarni yaratib berishlari bilan baholanmoqda. Albatta, buning uchun mamlakatda olib borilayotgan ta’lim islohotlarining ahamiyati yuqori. Ta’lim ham bir vaqtning o‘zida jamiyat vakillari orasida ham vertikal, ham gorizontal mobillik kanali bo‘lishi mumkin.

Mamlaktimizda 2030 yilga borib ayollarni oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish darajasining 60 foizga ko‘tarilishi ta’limni eng kuchli ijtimoiy mobillik instituti sifatidagi o‘rni oshishini ifodalaydi.

Boylik va pul to‘plab, katta mulk egasi bo‘lish orqali o‘z ijtimoiy maqomini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan yo‘l ham jamiyatda ijtimoiy mobillik kanali hisoblanadi. Bu ijtimoiy mobillik kanali boshqalaridan juda murakkabligi va doimiy harakatda bo‘lishni talab qilishi bilan ajralib turadi. Mulkdorlik, ya’ni jamiyatda boy bo‘lish faqat vertikal ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Vertikal va gorizontal mobillik kanallari orasida oila va nikohni ham keltirib o‘tish mumkin. Boshqa ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan vakil bilan nikoh odatda nikohga kiruvchilarda birining ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy mobillikning ushbu kanali orqali ayrim shaxslar o‘z nufuzlarini ko‘tarib oladilar yoki tushuradilar. Bunday holat vertikal ijtimoiy mobillik kanaliga xosdir. Nikoh va oila qurgandan keyin ham shaxsning ijtimoiy maqomi o‘zgarmay qolsa, demak bu gorizontal ijtimoiy mobillik ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Nufuzli yuqori darajada rivojlangan davlatlarning fuqaroligiga ega bo‘lishning eng oddiy usuli – shu mamlakatning fuqarosi bilan nikohdan o‘tishdir. Moddiy mukofot uchun amalga oshiriladigan soxta nikohlar ham jamiyatdagi ayollar orasida uchrab turadi. Ko‘plab mamlakatlarning qonunchiligi nikohdan faqatgina «ijtimoiy lift» sifatida foydalanuvchi oddiy immigrantlarni nazorat qilishning maksimal darajadagi qat’iy filtrlarni yaratishga intilgan holda nikoh orqali fuqarolikni olish tartibini bat afsil qayta ishlab chiqmoqda.

O‘sib borayotgan nikoh vositasidagi mobillikning klassik turi – boy qizga uylanish yoki boy yigitga turmushga chiqish demakdir. Ushbu strategiya universal tabiatga ega va turli davrlarda hamda turli xalqlarda uchrab turadi. Bu kabi nikoh ayrim hollarda bir nechta qavat yuqoridagi sinfga, tabaqaga keskin sakrashni amalga oshirish va turmush o‘rtog‘ining moliyaviy va ijtimoiy manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ayollar uchun omadli nikoh yoki omadli oilaning a’zosi bo‘lish, ular uchun ijtimoiy lift hisoblanadi.

Davlat organlari va siyosiy partiyalar ham gorizontal va vertikal ijtimoiy mobillik kanali ba’zida esa ijtimoiy lift vazifasini ham bajaradi. Ko‘plab buyuk davlat arboblarining karerasi kichik darajadagi mansabdorlik lavozimidan boshlangan. Har qanday imkoniyatlardan foydalangan holda ular nisbatan yuqori lavozimlarni, ayrim hollarda esa eng yuqori lavozimlarni egallashga qadar ko‘tarilishga erishganlar.

Saylovlar instituti raxbarlar saylanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan demokratik mamlakatlarda siyosiy tashkilotlar garchi birmuncha boshqacha shaklda bo‘lsada, vertikal ijtimoiy

mobililik kanali sifatida namoyon bo‘ladi. Tanlanganlar safida bo‘lishi uchun shaxs siyosiy partiya yoki siyosiy tashkilotning a’zosi bo‘lishga intiladi. Shu sababli, ijtimoiy mobililik kanali sifatida siyosiy tashkilotlar alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy demokratik mamlakatlarning siyosiy liderlarining, davlat arboblarining, senator va boshqa mansabdor shaxslarning ko‘pchilikni tashkil qiluvchi guruhi o‘z lavozimlariga siyosiy partiyalar orqali erishganliklari bizga ma’lum.

Zamonaviy siyosiy tizim ham, shuningdek siyosiy partiyalardan vertikal mobililik kanali sifatida foydalaniladi. Agar ushbu kanal bo‘lmasanida, ko‘plab siyosiy va davlat arboblari jamiyatda bu qadar yuqori lavozimlarga erisha olmagan bo‘lar edilar.

Professional tashkilotlar shaxsning gorizontal va vertikal ijtimoiy mobililik kanallarini tanlashida muhim o‘rin tutadi. Ilmiy, adabiy, ijodiy institutlar va tashkilotlar ham shular jumlasiga kiradi. Ushbu tashkilotlarga kirish barcha uchun nisbatan oson bo‘lganligi sababli, ularning ijtimoiy maqomidan qat’iy nazar tegishli qobiliyatları aniqlanganda, bu kabi institutlar ichidagi harakatlar ijtimoiy pillapoyalardan shaxsning ko‘tarilishida jadallik xususiyatiga ega bo‘ladi. Kelib chiqishi jamiyatning pastki qatlamlaridan bo‘lgan ko‘plab olimlar, xuquqshunoslar, adabiyotshunoslar, rassomlar, musiqachilar, arxitektorlar, haykaltaroshlar, shifokorlar, aktyorlar, qo’shiqchilar va boshqa ijodkorlar aynan shu kanallar orqali yuqoriga ko‘tarilganlar. O‘rta qatlam vakillarining yanada yuqoriroq lavozimlarga erishganliklari haqida ham xuddi shu fikrlarni aytish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari ham professional institutlarning o‘ziga xos turi, bu kanal faqat vertikal ijtimoiy mobililikning eng muhim kanali sifatida sanalishi mumkin. Bugungi kunda mazkur jihatdan matbuotning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. U hech bo‘lmasanida birmuncha vaqt davomida har qanday qobiliyatsiz insonning yuqori darajaga olib chiqishi yoki o‘ta iste’dodli bo‘lgan shaxsni muvaffaqiyatsizlikka uchratishi mumkin bo‘lgan kuchga aylangan.

Zamonaviy jamiyatlardagi kasblar orasida «Public Relations» (PR) deb nomlanuvchi yangi kasb amaliyotda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritmoqda. Ingliz tilidan olingan «Public Relations» atamasi – «Jamoatchilik bilan aloqalar», «Jamoatchilik bilan munosabatlar» degan ma’nolarni anglatadi.

«Public Relations» (bundan buyon – PR, piar) iborasi ilk bor AQShning uchinchi Prezidenti Tomas Jefferson tomonidan ishlataligan. U 1807 yili «Kongressga yettinchi murojaati»da ushbu atamani birinchi marta qo‘llagan . Bundan maqsad, o‘sha davrda hukumatning jamoatchilik bilan aloqalarini davlat darajasiga ko‘tarish, ilmiy-tashkiliy jihatdan yo‘lga qo‘yish edi.

Hozirgi zamonaviy jamiyatda PR jamoatchilikka «tirik mahsulot» yetkazish bilan band bo‘lib turibdi. PR doimiy faoliyatidan ko‘ra aynan prezidentlikka yoki vakillik organlariga saylovlari vaqtida saylovchilar bilan uchrashuvlarda ko‘proq faollashadi. PR saylovlari vaqtida nomzodlarni saylovchilarga tanishtirishda reklamani san’at darajasigacha olib boradi.

Bugungi kunda nafaqat matbuot, balki televidenie va internetdagi ijtimoiy tarmoqlar ham vertikal mobillik kanaliga aylandi. Ularning barchasi bevosita yoki bilvosita «ijtimoiy lift» vazifasini bajarmoqda. «Mashhurlik» – bu bugungi kunda tezkor sur’atlarda ko’tarilish vositasi bo‘lib qolmoqda. U ko‘pincha yo‘q joydan shuhrat olib keladi, u iste’dodlarni ochadi yoki nobud qiladi, u o‘rtacha qobiliyatlarni mukammal darajaga olib chiqadi, shuningdek, haqiqiy mukammallikni yo‘q qilishi ham mumkin. Bunga na musiqiy tovushlarni farqlash qobiliyati, na ovozi bo‘lmagan, biroq «ko’tarilish» uchun mablag‘i yoki kuchli xohishi bo‘lgan ko‘p sonli xip-xop va pop-ijrochilar bunga misol bo‘la olishi mumkin.

Migratsiya ijtimoiy mobillikda gorizontal va vertikal ko‘rinishda ham eng faol kanallardan biri hisoblanadi. Migratsiya atamasi odamlarni bir hududdan boshqa hududga, bir tumandan boshqa tumanga, qishloqdan shaharga, shahardan qishloqqa ko‘chib o‘tishlari, degan ma’noni anglatadi.

Migratsiya so‘zi o‘zining tarkibiy qismlari bo‘yicha bir necha hil tushunchalarni beradi. Migratsiya aholini bir mamlakat ichidagi ko‘chishi bo‘lsa, emigratsiya mamlakat tashqarisiga uzoq vaqt yoki doimiy yashash uchun ko‘chishni, immigratsiya so‘zi esa shu mamlakatga boshqasidan uzoq vaqt yoki doimiy yashash uchun ko‘chib kelish degan tushunchalarni beradi .

Emigratsiya jamiyatga son va sifat jihatidan ta’sir ko‘rsatadi. Agar sohalar bo‘yicha iqtidorli va malakali mutaxassislar mamlakatdan chiqib ketsa, bu holat, albatta, jamiyatning soniga va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Immigratsiya esa shu mamlakatdagi aholi sonini ko‘taradi va yuqori malakali mutaxassislar va ishchi kuchlari kelishiga imkon yaratadi. Aholi tarkibidagi pastroq malakali mutaxassislar esa jamiyatda bir muncha siqib qo‘yiladi. Mana shu holat jamiyat a’zolarini bir joydan boshqa joyga ko‘chishiga yoki ijtimoiy to‘qnashuvga sabab bo‘ladi.

Antik davrda insonlarning hayotlik davrida to‘plagan mol-mulklarini o‘zi bilan narigi dunyoga olib ketishi tushunchsi vaqt va zamonlar o‘tishi bilan o‘z kuchini yo‘qotib, bu mulklar uning farzadlariga yoki qarindoshlariga o‘tish jarayoni milodning VI asrlaridan buyon davom etmoqda. Meros masalasi davrlar o‘tishi bilan diniy qonun-qoidalar va davlatlarning qonunchilik darajasigacha ko‘tarilishi bilan izohlanadigan tadrijiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi va institutsional huquq tizimida o‘zining o‘rniga ega bo‘ldi. Hozirgi davrda meros instituti jamiyatda vertikal ijtimoiy mobillik kanallaridan biri sifatida qaraladi.

Meros tushunchasi dunyo jamiyatlarida ikki hil ma’noda talqin qilinadi. Birinchisi, «Mayorta» deb nomlanib, unda vafot etgan kishining obro‘sni va jamiyatda egallagan ijtimoiy maqomi hamda uning barcha mol-mulkleri bir butunligicha uning katta farzandiga o‘tadi. Ikkinchisi «Minorata» deb nomlanib, unda vafot etgan kishining faqat mol-mulkleri barcha farzandlar o‘rtasida teng taqsimlanadi. Ba’zi hollarda ota-onasi qarib qolgan vaqtida ularni parvarish qilgan kichik farzandga

qoldiriladi . Meros instituti tarixi deyarli insoniyat tarixi bilan birga davom etib kelmoqda. Meros jamiyatda doim vertikal ijtimoiy mobillik kanali sifatida saqlanib qoladi.

Turizm sababli dunyo xalqlari turli mamlakatlarda bo‘ladilar. U yerlardagi diqqatga sazovor joylar bilan tanishadilar va ma’lum bir vaqt boshqa mamlakatlarda yashaydilar. Aynan mana shunday turistlarga xizmat ko‘rsatish, ya’ni sayohatlar tashkil qilish, mehmonxonalar va restoranlarni tashkil qilish orqali jamiyat vakillari katta foyda oladilar. Turizm tadbirkorlikdan alohida bir iqtisodiy institut hisoblanib, o‘zining alohida tarixiy institutiga ega bo‘lgan soha hisoblanadi. Shu sababli turizm jamiyatda ham gorizontal ham vertikal ijtimoiy mobillik kanalaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiya va poraxo‘rlik ham garchi qonunga zid bo‘lsa-da ijtimoiy mobillik kanallaridan biri sifatida jamiyatda mavjud holat hisoblanadi. Bu kanal o‘z ishtirokchilarini gohida yuqoriga ko‘taradi, goh pastga tushiradi. Agar pora olgan shaxsning pora olganini hech kim bilmasa yoki isbot qilib berolmasa, bu shaxs katta mulk egasiga aylanadi. Agar qo‘lga tushsa yoki aybi isbotlansa, unda u jinoiy jazoga tortilib, bor mulkidan, hatto ozodligidan ham mahrum bo‘ladi. Korrupsiya va poraxo‘rlik jamiyatda vertikal ko‘rinishdagi aylanma ijtimoiy mobillik kanali hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, natijaga erishish motivatsiyasi, ya’ni undovchi kuch doim ijtimoiy mobillikning manbasi hisoblanadi. Turli hil ijtimoiy institatlarga tegishli bo‘lgan ijtimoiy mobillik kanallarining jamiyatda mavjud bo‘lishi ayollarga o‘z guruhalarda yoki boshqa ijtimoiy guruhlarda o‘z o‘rinlarini topishga imkoniyat yaratadi.

Ayollarning turmush sharoitiga ta’sir etuvchi va ularning harakatchanligini ta’minalashga qodir ijtimoiy jarayonlarning mavjudligi ijtimoiy mobillik omillariga ta’sir etadi. Bunday ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy mobillikning tezligi, xarakteri va natijasini belgilab beradi.

Iqtidorli shaxslar jamiyatning barcha qatlamlarida tug‘iladilar. Agar jamiyatda yuqori qatlamlarga ko‘tarilish uchun to‘silalar yoki filrlar bo‘lmasa, ijtimoiy mobillikning turli ko‘rinishlari jamiyatda doim sodir bo‘ladi. Lekin, jamiyat stratifikatsiyasida har bir qatlam orasida individlarning bir qatlamdan boshqa qatlamga yoki boshqa bir ijtimoiy guruhga ko‘chib o‘tishlarini to‘xtatib qoluvchi to‘silalar mavjud. Bunday qiyinchiliklar va ta’qiqlar ayollar orasidagi ijtimoiy munosabatlarning sezilarli darajada buzilishiga yoki o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Ayollar tomonidan erishilgan natijalar doim ularni qoniqtiradi va yanada rivojlanish uchun undovchi kuch bo‘ladi. Natjalarga erishish qiyinlashgani sari Ayollarning hayotiy rejali o‘zgarib ketadi va ularni boshqa aylanma yo‘llarni qidirib topishga undaydi. Oqibatda ayollarning ba’zi qismlari qonunga itoat qilmaydi, turli noqonuniy tashkilotlar va guruhlarga a’zo bo‘ladi, huquqbazarlik yoki jinoyat sodir qilib, jamiyatda egallagan o‘rni va maqomini ham yo‘qotadi. Bunday holat jamiyatning bir butunligiga, tarkibiga va sifatiga katta zarar yetkazadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ijtimoiy mobillik mexanizmlari davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tartibga solib turilishi kerak va bu ularning asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova L. M. JAMI OF SUFI PHILOSOPHY //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 105-108.
2. Karimova L. M. ETHICS IN THE WORKS OF ABDURAHMAN JAMI //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – T. 5. – №. 04. – C. 73-76.
3. Karimova L. M. THE IMPORTANCE OF THE IDEAS OF FRIENDSHIP IN STRENGTHENING THE SOLIDARITY AND UNION OF YOUNG PEOPLE IN THE VIEWS OF THE THINKER //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 247-251.
4. Karimova L. M. About Human Health and Manners in the Rashkhas of Abdurahman Jami //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 24-27.
5. Karimova L. M. Abdurrahman Jami And Sufism //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 8. – C. 2866-2874.
6. Karimova L. M. REGULATION OF SOCIAL MOBILITY MECHANISMS AS THE MAIN FACTOR OF SOCIAL MANAGEMENT //Builders Of The Future. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 30-35.
7. Karimova L. M. SOCIAL PROCESSES SOCIAL MOBILITKNING MOVEMENT QUALITATIVE STREET //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 17-23.
8. Karimova, L. M. . (2023). THE NEW UZBEKISTAN WHERE HUMAN RIGHTS ARE APPRECIATED. Builders Of The Future, 3(06), 24–29. <https://doi.org/10.37547/builders-v3-i6-5>
9. Akhmedova Z. A. INNOVATIVE IDEAS (FOR HIS ERA) OF THE THINKER AHMAD DONISH //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 101-104.
10. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 104-108.
11. Choriyeva Madina Aliyevna, . (2023). EXISTENTIALISM AND ITS FUNCTION. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 3(12), 09–11. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/jsshrf/article/view/27793>
12. Choriyeva M. A. THE THEORETICAL ORIGIN OF FIRDAUSI'S PHILOSOPHICAL WORLD VIEWS.(ANALYSIS OF PART 1) //Journal of Social Research in Uzbekistan. – 2022. – T. 2. – №. 04. – C. 34-39.

13. Ҳамдамов Б. THE HISTORICAL HERITAGE OF ABU ALI IBN SINA-A NECESSARY TREASURE IN THE SPIRITUAL AND EDUCATION OF YOUTH //Новый день в медицине. – 2020. – №. 4. – С. 143-145.
14. Choriyeva M. A. THE VALUE OF THE PHILOSOPHICAL IDEAS OF FIRDAVSI IN THE EDUCATION OF YOUTH //Oriental Journal of History, Politics and Law. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 136-141.
15. Choriyeva M. A. The theoretical origin of firdausi's philosophical world views.(analysis of part 3) //Builders Of The Future. – 2022. – Т. 2. – №. 03. – С. 7-12.
16. Chorieva M. A. PHILOSOPHICAL IDEAS IN FIRDAUSI'S SHAHNAMEH //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 46-52.
17. Chorieva M. A. STATE OF STUDY OF THE PROBLEM AND THE METHODOLOGICAL BASIS OF THE RESEARCH //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – Т. 5. – №. 04. – С. 82-92.
18. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 104-108.
19. Choriyeva , M. A. . (2023). EXISTENTIALISM: BRIEFLY ABOUT THE MOST IMPORTANT THINGS. Journal of Social Research in Uzbekistan, 3(06), 18–23. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-04>
20. Karimova L. M. SOCIO-CULTURAL AND SCIENTIFIC ENVIRONMENT IN MOVAROUNNAHR AND KHORASAN IN XIII-XV CENTURIES //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – Т. 3. – №. 07. – С. 29-38.
21. Karimova L. M. IDEOLOGICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ABDURAHMAN JAMI'S VIEWS ON THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 07. – С. 28-34.
22. Muzaffarovna K. L. THE VIEWS OF ABDURAHMAN JAMI ON FAMILY AND FAMILY UPBRINGING //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 90-94.
23. Akhmedova Z. A. REFORMATIVE VIEWS OF AHMAD DONISH IN MODERNIZATION EDUCATIONAL SYSTEMS IN THE EMIRATE OF BUKHARA (XIX AND EARLY XX CENTURIES) //Journal of Social Research in Uzbekistan. – 2022. – Т. 2. – №. 01. – С. 42-51.

24. Karimova L. M. Abdurahman Jami's Views on Humanity (Source Study) //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 11. – C. 146-149.
25. Akhmedova Z. A. THE PROBLEM OF HUMAN EXISTENCE AND THE PROBLEM OF NATURE IN THE PHILOSOPHY OF AHMAD DONISH //Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 03. – C. 53-58.
26. Ergashevna G. L. THE IMPORTANCE AND PLACE OF PHILOSOPHY IN SHAPING THE WORLDVIEW OF MODERN YOUTH //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 72-74.
27. Ergashevna G. L. MODERN VALEOLOGICAL TEACHINGS AND THEIR SOCIOANTHROPOLOGICAL ESSENCE //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – T. 5. – №. 04. – C. 106-113.
28. Gadoeva L. E. Ethnomedical Culture And Healthy Lifestyles: A Dialectical Relationship In Genesis //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 8. – C. 2875-2884.
29. Gadoeva L. E. PHYSICAL LABOR IS THE BASIS OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – T. 2. – №. 07. – C. 22-27.
30. Gadoeva L. E. QUALITY OF LIFESTYLE SOCIO-PHILOSOPHICAL CATEGORY //Oriental Journal of Social Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 03. – C. 62-66.
31. Gadoeva L. E., Rakhmatullaeva K. STAGES OF FORMATION OF HEALTHY LIFESTYLE AND ETHNO-MEDICAL CULTURE IN UZBEKISTAN: ANALYSIS OF EXPERIENCES //Builders Of The Future. – 2022. – T. 2. – №. 03. – C. 1-6.
32. Гадоева Л. Э. История развития понятия «здоровый образ жизни» в Узбекистане //Наука, техника и образование. – 2020. – №. 11 (75). – С. 46-49.
33. Gadoeva L. ETHNOSOCIAL ASPECTS OF A HEALTHY LIFESTYLE //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 446-449.
34. Karimova L. M. About Human Health and Manners in the Rashkhas of Abdurahman Jami //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 24-27.